



**AN'ANAVIY HONANDALIK ASARLARI VA ULARNING MUSIQA  
TA'LIMIDAGI AHAMIYATI**

Andijon davlat universiteti

Sport va san'at fakulteti

Musiqa san'ati kafedrası

Vokal ijrochiligi yo'nalishi o'qituvchisi

**No'monov Iftixorjon Iqboljon o'g'li**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston an'anaviy xonandalik san'ati, uning shakllanish tarixi, janrlari, va asarlarining zamonaviy musiqa ta'limidagi o'rni tahlil qilingan. Xonandalikning milliy musiqiy meros sifatida yoshlarga yetkazilishi va pedagogik yondashuvlar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется традиционное певческое искусство Узбекистана, его история формирования, жанры, роль его произведений в современном музыкальном образовании. Освещены вопросы передачи пения молодежи как национального музыкального наследия и педагогические подходы.

**Annotation:** This article analyzes the traditional singing art of Uzbekistan, its history of formation, genres, and the role of its works in modern music education. The transmission of singing to young people as a national musical heritage and pedagogical approaches are highlighted.

**Kalit so'zlar:** An'anaviy xonandalik, maqom, folklor, musiqa ta'limi, milliy meros, pedagogika.

**Ключевые слова:** Традиционное пение, маком, фольклор, музыкальное образование, национальное наследие, педагогика.

**Keywords:** Traditional singing, maqom, folklore, music education, national heritage, pedagogy.

O'zbekiston boy madaniy merosga ega davlat sifatida qadimdan musiqa san'atini rivojlantirib kelmoqda. Ayniqsa, an'anaviy xonandalik san'ati xalqimizning ruhiy dunyosini ifodalovchi, o'ziga xos musiqiy shakldir. Xonandalik san'ati nafaqat estetik zavq baxsh etadi, balki yosh avlodga ma'naviy tarbiya berishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi yo'nalishida an'anaviy xonandalikni o'qitish dolzarb masalalardan



biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek xalqi tarixan boy og‘zaki ijodga ega bo‘lib, bu jarayonda xonandalik san‘ati muhim o‘rin egallaydi. Xonandalar xalq orasida dostonlar, maqomlar, ashulalar ijro etgan. Xonandalik avvalo Shashmaqom, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari orqali shakllangan. 20-asrda Yunus Rajabiy, Fattoxxon Mamadaliyev, Mahmudjon Tojiboyev, Mahmudjon Yo‘ldoshev G‘ulomjon Hojiqulov, Munojot Yo‘lchiyeva, Usta Olim Komilov, Komiljon Otaniyozov, Sherali Jo‘rayev kabi mashhur xonandalar bu san‘atni yuksak darajaga olib chiqdilar.

An‘anaviy xonandalikda quyidagi janrlar mavjud:

- Maqomlar – Shashmaqom, Xorazm maqom yo‘llari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari;
- Lazgilar, Yalla va boshqa xalq qo‘shiqlari;
- Folklor xonandaligi – turli hududlarga xos kuy-qo‘shiqlar;
- Lirik shoirlar g‘azallarini ashula qilib ijro etish.

Bu janrlar milliy musiqamizning asosiy tayanchidir va har biri alohida pedagogik yondashuvni talab qiladi. Musiqa ta‘limi yo‘nalishida an‘anaviy xonandalikni o‘qitishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Eshitib o‘rganish – ustoz-shogird an‘anasini davom ettirish;
- Nafas mashqlari – xonandaning ovoz imkoniyatini kengaytiradi;
- Matn va musiqiy ohang uyg‘unligi – har bir asar mazmunan va musiqiy jihatdan tahlil qilinadi;

Xonandalik faqat musiqiy mahorat emas, balki axloqiy va ma‘naviy tarbiya vositasi hamdir. Maqomlar va xalq qo‘shiqlari orqali:

- Vatanni sevish,
- Kattaga hurmat,
- Go‘zallikka intilish,
- Sabru-toqat, kabi qadriyatlar singdiriladi. Bu jihatlar bugungi kunda yoshlar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy xonandalik san‘ati O‘zbekiston madaniyatining ajralmas qismidir. Uni oliy ta‘limda o‘rgatish nafaqat musiqiy, balki ma‘naviy va tarbiyaviy jarayonning muhim bo‘lagi hisoblanadi. Musiqa ta‘limi yo‘nalishida bu yo‘nalishga alohida e‘tibor qaratish — yosh avlodni milliylikka sodiq, estetik didli inson etib voyaga yetkazishda muhim omildir.



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdurashidov A. “O‘zbek musiqa merosi”. – T.: O‘zbekiston, 2012.
3. Otaniyozov K. “Maqom san’ati va xonandalik an’analari”. – Navoiy, 2016.
4. Jo‘rayev S. “Ijod va hayot”. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.
5. Internet manbalari: [www.musicoftheorient.uz](http://www.musicoftheorient.uz)